

KONFERENSIYALAR.COM

ANJUMANLAR PLATFORMASI

O'ZBEKISTON – 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM ISTIQBOLLARI

**IX RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYA MATERIALLARI**

DEKABR, 2025-YIL



O‘ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA’LIM ISTIQBOLLARI

**IX RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYASI MATERIALLARI**

2025-yil, dekabr

TOSHKENT-2025

ISBN 978-9910-8337-4-8

O'ZBEKISTON – 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM ISTIQBOLLARI. IX Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Toshkent: Scienceproblems team, 2025. – 69 bet.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2025-yil, 29-noyabr

Mas'ul muharrir:

Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur nashrda "O'zbekiston — 2030: innovatsiya, fan va ta'lim istiqbollari" nomli IX Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi doirasida taqdim etilgan ilmiy maqolalar to'plami jamlangan. Unda O'zbekistonning turli oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari, tarmoq tashkilotlari, mustaqil tadqiqotchilar tomonidan taqdim etilgan ijtimoiy-gumanitar, iqtisodiyot, huquq, biologiya, tibbiyot va boshqa sohalarga oid maqolalar kiritilgan. Maqolalarda ilm-fanning zamonaviy yo'nalishlari, innovatsion texnologiyalar, ta'lim islohotlari hamda barqaror taraqqiyotga oid masalalar muhokama qilingan. To'plam akademik izlanishlar, amaliy tajribalar va ilmiy xulosalarni birlashtirgan holda, fanlararo integratsiyani chuqurlashtirish va ilmiy hamkorlikni kuchaytirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsiya, fan va ta'lim, O'zbekiston 2030, barqaror rivojlanish, ilmiy izlanishlar, fanlararo integratsiya, ilmiy hamkorlik, texnologik taraqqiyot, zamonaviy ta'lim.

ISBN 978-9910-8337-4-8

Barcha huquqlar himoyalangan.

© Scienceproblems team, 2025-yil

© Mualliflar jamoasi, 2025-yil

MUNDARIJA

TEXNIKA FANLARI

Sharipova Zaynab

NEFT SHLAMLARINING FIZIK-KIMYOVIY TARKIBI VA EKOLOGIK XUSUSIYATLARINI TADQIQ
ETISH MASALASIGA DOIR DASTLABKI TADQIQOTLAR4-12

Kasimov Sandjar

ENERGIYA TEJOVCHI TEXNOLOGIYALARNI SERTIFIKATLASHTIRISH VA
STANDARTLASHTIRISHNING ILMIY ASOSLARI MASALASI 13-21

Rahimov Oktyabr, Cho'liyeva Munisa

MEHNAT XAVFSIZLIGINI BOSHQARISHDA KOMPETENTLIKGA YEVRUPACHA
YONDOSHUV 22-26

Safoyev Nuriddin

AXBOROTNI KRIPTOGRAFIK HIMOYALASHDA TASODIFIY SONLAR GENERATORLARINING
AHAMIYATI VA ISTIQBOLLARI 27-33

TARIX FANLARI

Pirimkulova Saodat

URUSH YILLARIDA BOLALAR MUAMMOSI: TARIXIY XOTIRA VA HUJJATLARDI AKS
ETILISHI 34-36

Eliyeva Nargiza

BENAZIR ILM SOHIBI 37-39

IQTISODIYOT FANLARI

Usmonov Murodbek

QISHLOQ JOYLARDA XIZMAT KO'RSATISH ORQALI AHOLI BANDLIGINI IFODALOVCHI
KO'RSATKICHLAR TAHLILI 40-44

Valiev Umid

OLIV TA'LIM TASHKILOTLARI BITIRUVCHILARINI TADBIRKORLIKKA JALB ETISH CHORA-
TADBIRLARI 45-48

YURIDIK FANLARI

Reymbayeva Guldaulet

THE RIGHTS OF TOURISTS IN THE DIGITAL ERA: NEW CHALLENGES AND LEGAL
PROTECTIONS 49-54

Турсунова Маликахон

ДИПЛОМАТИЯ И МЯГКАЯ СИЛА: СООТНОШЕНИЕ И СОВРЕМЕННЫЙ НАУЧНЫЙ
ВЗГЛЯД 55-63

Muxitdinova Firuza

KONSTITUTSIYAVIY MODERNIZATSIYA VA XALQARO HAMKORLIK: O'ZBEKISTONNING
DUNYO MAYDONIDAGI YANGI YO'NALISHI 64-68

BENAZIR ILM SOHIBI

Eliyeva Nargiza Toshburiyevna

O'zbekiston Respublikasi IIV

Navoiy akademik litseyi tarix fani o'qituvchisi

Email: nargizaeliyeva914@gmail.com

Tel: +998939229990

Navoiy, O'zbekiston

Annotatsiya. Mirzo Ulug'bek mo'g'ullar davlatchiligi va to'rt ulus tarixi bo'yicha muhim ilmiy meros qoldirgan. U Jo'ji, Chig'atoy, O'g'aday va Toluy uluslari shakllanishi, ularning siyosiy tuzilishi va Chingizxon avlodlari o'rtasidagi meros taqsimotini aniq manbalar asosida tahlil qilgan. Ulug'bek uluslarning iqtisodiy hayoti, harbiy boshqaruvi, hukmdorlar o'rtasidagi ittifoqlar va ziddiyatlar rivojiga oid ma'lumotlarni bir tizimga keltirgan. Bu tadqiqotlar mo'g'ullar imperiyasi parchalanish sabablarini, uluslar o'rtasidagi munosabatlarning Markaziy Osiyo tarixiga ta'sirini tushunishga yordam beradi. Uning yondashuvi hozirgi tarixshunoslikda qadrlanib, mo'g'ullar davrini o'rganishda asosiy ilmiy manbalardan biri sifatida qo'llanadi. Ulug'bekning tarixiy kuzatuvlari bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

Kalit so'zlar: Mirzo Ulug'bek, "Ziji Ulug'bek", "To'rt ulus tarixi", ilm-fan rivojlanishi.

AN UNPARALLELED SCHOLAR

Elieva Nargiza Toshburievna

Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan

History teacher at the Navoiy Academic Lyceum

Navoi, Uzbekistan

Annotation. Mirzo Ulugh Beg left a significant scholarly legacy on the Mongol state and the history of the four Uluses. He examined the formation of the Jochi, Chagatai, Ogedei, and Tolui domains, analyzing their political structures and the distribution of power among the descendants of Chinggis Khan. Ulugh Beg organized data on their economic systems, military administration, alliances, and conflicts. His work helps modern researchers understand the reasons behind the empire's fragmentation and the impact of inter-ulus relations on Central Asian history. His analytical approach remains valuable for today's historiography.

Keywords: Mirzo Ulugh Beg, Ziji Ulugh Beg, History of the Four Uluses, development of science.

Buyuk Amir Temurning nabirasi, benazir alloma Mirzo Ulug'bekning o'rta asrlar sharoitida namoyon etgan jasorati bugungi kun olimlarini ham hayratga solmasdan qo'ymaydi. Taqdir bu ulug' zotning zimmasiga behad ulkan va mashaqqatli vazifalar yuklaydi. Buyuk sarkarda Amir Temur bunyod etgan saltanat vorisi bo'lishdek o'ta ma'suliyatli vazifa aynan unga nasib etdi. Qariyb qirq yil Movarounnahr diyorini donishmand hukmdori sifatida xalqning azaliy orzusi-tinchlik, totuvlik, ilm-fan va madaniyatni taraqqiy toptirish yo'lida ulkan shijoat va matonat ko'rsatdi.

Mirzo Ulug'bek 1394-yilning 22-martida Sultoniya shahrida tug'ilgan. Uning asli ismi Muhammad Tarag'ay. Otasi Amir Temurning o'g'li Shohruh Mirzo. Onasi Gavharshodbegim. Otasi 1409-yilda Samarqanddan Hirotga qaytish oldidan o'n besh yoshli Mirzo Ulug'bekni Movarounnahr va Turkistonga hokim qilib tayinlaydi. Ulug'bek garchi Movarounnahr bilan Turkistonning hokimi deb e'lon qilinsada, aslida uning hokimiyati chegaralari dastavval faqat Samarqand, Buxoro va Nasaf viloyatlari bilangina cheklanardi.

Ulug'bek ilm-fan ravnaqiga katta hissa qo'shgan hukmdor ham edi. U 1417-yil Buxoroda, 1420-yil Samarqandda, 1433-yil G'ijduvonda madrasalar (oliy ta'lim muassasalari) qurdirgan. Buxorodagi madrasa eshigiga "Bilim olish har bir musulmon ayol va erkakning burchidir" degan ibora o'yib yozilgan. 1420-yilda ochilgan Samarqand madrasasi ikki qavatli, ellik hujrali bo'lgan. Har bir hujra uch xonaga: qaznoq, yotoqxona va darsxonalarga bo'lingan. Madrasada o'sha zamonning iqtidorli olimlaridan mavlono Shamsiddin Muhammad Havoqiy yetakchi mudarris bo'lgan. O'rta asrlarning mashhur olimlari Qozizoda Rumiy, G'iyosiddin Jamshid Koshoniy, Mirzo Ulug'bek va uning shogirdi Alouddin Ali Qushchilar turli fanlardan dars berganlar. Madrasa ochilgan kuni birinchi darsni Shamsiddin Muhammad Havoqiy o'qigan, darsda tolibi ilmlardan to'qson nafari ishtirok etgan. Mirzo Ulug'bek 1424-1429-yillarda shahar yaqinidagi Obirahmat anhuri bo'yida rasadxona qurdirtdi. Imoratning balandligi 31 metrni tashkil etadi. G'iyosiddin Jamshid boshchiligida rasadxonaning asosiy o'lchov asbob-uskunasi ulkan sekstant o'rnatilgan. Samarqand sekstanti o'sha davrda Sharqda ma'lum bo'lgan sekstantlarning eng kattasi hisoblangan. Rasadxona qoshida boy kutubxona ham tashkil etilgan. Rasadxona tevaragida olimlar va xizmatchilar uchun katta-kichik hujralar quriladi. Uning etagida esa ikkita chorbog' barpo etiladi.

"Ziji Ulug'bek", "Ziji jadidi Ko'ragoniy" nomlari bilan shuhrat qozongan bu asarda 1018 yulduzning o'rni va holati aniqlab berilgan. Yulduzlarning balandligi va ular orasidagi masofa, quyosh va oyning harakati, ularning tutilish vaqtlari bayon qilingan. Bu hisob-kitoblar zamonaviy texnologiyalar orqali aniqlangan kuzatuv natijalaridan deyarli farq qilmaydi. Ulug'bek hisobi bo'yicha bir yil 365 kun 6 soat 10 daqiqa 8 soniyani tashkil etadi. Bugungi kunda bir yil 365 kun 6 soat 9 daqiqa 6 soniyaga teng. *"1996-yil YUNESKOning o'sha paytdagi bosh kotibi Federiko Mayor bilan bo'lgan suhbatda u Ulug'bekning ilmiy merosini yuksak baholab, uning yulduzlar harakatiga oid hisob-kitoblari bugungi kunda kompyuter yordamida tekshirib ko'rilganda atigi bir necha daqiqaga farq qilishi aniqlandi deb aytdi. Shunda men Ulug'bek xato qilgan bo'lishi mumkin emas, balki kompyuterlar xato qilgan bo'lishi mumkin degan edim."*

Islom Karimov, "Yuksak ma'naviyat- yengilmas kuch" asaridan

Mirzo Ulug'bek butun dunyoga taniqli olim bo'lib, uning merosi bugina O'zbekistonda emas, balki xalqaro miqyosda ham e'tirof etilgan. Masalan, 1994-yilda O'zbekiston Prezidentining tashabbusi bilan "Ulug'bek yili" e'lon qilindi va Parij shahridagi YUNESKO majmuasida xalqaro konferensiya o'tkazildi. 2009-yilda Parijda Ulug'bekning 615-yilligiga bag'ishlangan konferensiya bo'lib o'tdi; unda "Mirza Ulug'bek dunyo astronomiyasiga mingdan ortiq yulduz harakati jadvalini taqdim etgan"ligi qayd etildi. Bugungi kunda Samarqanddagi Ulug'bek rasadxonasining qoldiqlari va unga bag'ishlangan muzey himoyalaniib, Unesco jahon merosi ro'yxatiga kiritilgan.

Mirzo Ulug'bekning "To'rt ulus tarixi" ("Tarix-i arba' ulus") asari mamlakatimizning Chingizxon istilosidan to Amir Temurning hokimiyat tepasiga kelguniga qadar bo'lgan tarixini o'rganishimizda muhim manba bo'lib kelmoqda. Bu asar 1424-yil yozib tagatilgan. Ulug'bek bu asarni yozishda juda ko'p tarixiy, geografik manbalar va xilma-xil kitoblardan keng foydalangan. Masalan, shoir hamda sayyoh Rashiduddin Votvot (1088-1182), Alouddin Juvayniy (1226-1283), Rashiduddin Hamadoniy (1247-1318), Hamdulloh Qazviniiy (1281-1349) va boshqalar nomlari tilga olinadi. Bu asarda Odam Atoning yaratilishi va islomda o'tgan payg'ambarlar tarixi qisqacha bayon qilingan. Turkxon ibn Yofasning zaminimizda hukmronlik

qilgan avlodlari va turk qavmlari qoraxon, o'g'izxon tarixi bayon qilingan. Chingizxonning qo'shini tuzilishi, oq rangdagi to'qqiz poyali tug'i, qurultoy va boshqa qabul marosimlaridagi tartib-qoidalar haqida ma'lumotlar keltirilgan. Chingizxon vafotidan keyin to Amir Temur zamonigacha Mo'gulistonda hukmronlik qilgan 21 hukmdordan 17 tasining tarixi qisqacha bayon qilingan. Chig'atoy ulusi (Qoshg'ar, Yettisuv vohasi, Movarounnahr, Xorazmning bir qismi, Afg'oniston va Shimoliy Hindiston) da 1238-yili Buxoroda bo'lib o'tgan Mahmud Tarobiy boshchiligidagi xalq qo'zg'oloni, Chig'atoy ulusining ijtimoiy-siyosiy hayotida barlos amirlarining, Qorachor no'yon, Ijlil no'yon, Alangiz no'yonlarning tutgan o'rni va roli, Duvaxon va Kepakxon ma'muriy va moliyaviy islohotlari shular jumlasidandir.

Asar ilk bor ilmiy jamoatchilikka 1894-yilda rus sharqshunosi V. V. Bartold tomonidan tanishtirilgan. U qo'lyozmani o'rganib, undagi genealogik ma'lumotlar, Chingizxon avlodlari haqida berilgan izohlar va Movarounnahr siyosiy tuzilmasiga doir faktlarni yuksak baholagan. Bartold fikricha, "To'rt ulus tarixi" Temuriylar davrida yozilgan eng ishonchli tarixiy matnlardan biridir. U asarning til uslubi, forsch-ruscha kombinatsiyasi, manba tanlashdagi aniqlik hamda muallifning voqealarni tahlil qilish qobiliyatiga alohida e'tibor qaratgan. Shu sababli Bartold asarni Markaziy Osiyo tarixshunosligining poydevori hisoblangan "Jome' ut-tavorix"dan keyingi eng muhim ilmiy kompozitsiyalardan biri deb hisoblagan.

Rossiya Fanlar Akademiyasi Sharqshunoslik instituti (Sankt-Peterburg) ham "Tarix-i arba' ulus"ning bir qismini o'z fondida saqlaydi. Bu qo'lyozma XIX asr Buxoro madrasalarida ko'chirilgan bo'lib, unda ayrim genealogik boblar, Chig'atoy ulusining siyosiy voqealari va mo'g'ul amirlarning lavozimlariga doir parchalarning o'ziga xos variantlari uchraydi. Tadqiqotchilar qo'lyozmadagi ayrim iboralar va imlo farqlari Buxoro maktabining uslubini aks ettirishini ta'kidlaydi. Institut olimlari 1960–1980-yillarda ushbu qo'lyozma asosida matnshunoslik, tilshunoslik va tarixiy tanqid metodlari bo'yicha ilmiy sharhlar tayyorlagan, bu esa asarning keyingi tadqiqotlarda yanada to'liq yoritilishiga xizmat qilgan.

Ulug'bekning bu asari to'liq nusxasi bizgacha yetib kelmagan. "Tarix-i arba' ulus" ("To'rt ulus tarixi") ning o'zbekcha nashri asarning Britaniya muzeyida saqlanayotgan qo'lyozma nusxasi asosida tayyorlangan. Ajdodlarimiz ilmiy merosini o'rganilmagan qirralarini o'rganishimiz va tahlil qilishimiz lozim.

Men yoshlarimizga murojat qilar ekanman, ularga doimo: "Biz buyuk ajdodlarimiz bilan faxrlanishimiz, g'ururlanishimiz kerak", deb aytaman. Ayni vaqtda "Faqat g'ururlanishning o'zi yetarli emas, kelinglar, o'zimiz ham, mana shu bebaho merosga o'z hissamizni qo'shaylik!" deb takrorlayman.

Islom Karimov.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. I. Karimov. Yuksak ma'naviyat- yengilmas kuch. T.: "Ma'naviyat", 2008
https://uzsmart.uz/kitoblar/files/Elektron%20kutubxona/Milliy_g%60oya_va_huquqs_hunoslik/Yuksak%20ma%60naviyat%20yengilmas%20kuch%20.pdf
2. M.Ulug'bek. To'rt ulus tarixi.T.: "Cho'lpon", 1993.
<https://kitobxon.com/oz/kitob/tort-ulus-tarixi>
3. <https://archive.org/details/bartoldworks>
4. <https://www.ivran.ru/>

O‘ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA’LIM ISTIQBOLLARI

IX RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI

2025-yil, 1-dekabr

Mas’ul muharrir: *F.T.Isanova*
Texnik muharrir: *N.Bahodirova*
Diszayner: *I.Abdihakimov*

O‘ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA’LIM
ISTIQBOLLARI. IX Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
materiallari. – Toshkent: Scienceproblems team, 2025. – 69 bet.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: Scienceproblems Team

Konferensiya o‘tkazilgan sana: 2025-yil, 29-noyabr

ISBN 978-9910-8337-4-8

Barcha huquqlar himoyalangan.
© Scienceproblems team, 2025-yil.
© Mualliflar jamoasi, 2025-yil.